

**MAHMUD KOSHG'ARIYNING ILM, AXLOQ VA RAHBARLIK
HAQIDAGI HIKMATLARI**

Bahodir Abdullajanovich Qo'chqarov

O'zbekiston Respublikasi Turan International University

Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

+998913504315

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ifodalangan ilmga intilish, halollik, ustozga hurmat va rahbarlikka doir hikmatlari tahlil etiladi. Asarda keltirilgan to'rtta hikmat zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi bilan uyg'un holda pedagogik yondashuv asosida sharhlanadi. Ilm, axloq va ijtimoiy barqarorlik g'oyalari asosida yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi g'oyaviy mazmun ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, ilm, axloq, ustozga hurmat, rahbarlik, milliy qadriyatlar, Devonu lug'otit turk, pedagogika, hikmat.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются педагогические идеи в трудах Махмуда Кашгари, изложенные в его произведении «Девону луготит турк». Четыре мудрых изречения, отражающие стремление к знаниям, уважение к учителю, честность и социальную стабильность, анализируются с позиций современной педагогики. Делается акцент на формировании национальных ценностей у молодежи через духовное наследие тюркского мира.

Ключевые слова. Махмуд Кашгари, знание, нравственность, уважение к учителю, руководство, национальные ценности, Devonu lugotit turk, педагогика, мудрость

ABSTRACT. This article analyzes the pedagogical ideas expressed in Mahmud al-Kashgari's "Devonu lug'otit turk", particularly his views on the pursuit of knowledge, honesty, respect for teachers, and leadership. Four selected



aphorisms from the text are discussed in light of modern educational principles. The article shows how these ideas can be effectively integrated into the development of national values among youth.

Keywords. *Mahmud al-Kashgari, knowledge, morality, respect for the teacher, leadership, national values, Dīwān Lughāt at-Turk, pedagogy, wisdom*

Mahmud Koshg'ariy – XI asr turkiy dunyo tafakkurining yirik namoyandasi bo'lib, o'zining “Devonu lug'otit turk” asari orqali til, madaniyat, axloq va tarbiyaning bebaho manbaini yaratdi. Bu asarda nafaqat lug'aviy ma'lumotlar, balki jamiyatning ma'naviy ustunlari, shaxs kamoloti, ilmga intilish, halollik, rahbarlik, odob va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur falsafiy g'oyalar jamlangan. A. Xamidov fikricha, “Mahmud Koshg'ariy merosi sharq pedagogik tafakkurining eng qadimiy qatlamini ifoda etadi va yosh avlodni tarbiyalashda ishonchli tayanch bo'lib xizmat qiladi” [[2, 78-b.]. Shuningdek, Sh. Qurbonov asarda “ilm, iymon va axloqiy poklik o'zaro uzviy bog'langan g'oya sifatida taqdim etilganini” ta'kidlaydi [3. 64-b].

Mahmud Koshg'ariy o'zining ulug' asari *Devonu lug'ot it turk*da turkiy xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlarini har bir so'z, hikmat, maqol, doston orqali yetkazishga harakat qilgan. Uning quyidagi nasihatlarini o'rta asr turkiy pedagogik tafakkurining yetuk namunasi sifatida bugungi ta'lim jarayonida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda:

Öğrân anıñ biligin,

Künta añar baru,

qutqılqın tañıǵıl,

qozǵıl küwáz ıaru.(*Devonu lug'ot it turk*, II jild, 162-bet)

Tarjimasi: *Uning ilmiga intil, har kuni uning huzuriga bor, uni izzatla, ilmini sinchiklab o'rgan.* Ushbu baytda muallif o'g'il farzandiga qilgan nasihati orqali faqat bilim olishning emas, balki ilm egasiga bo'lgan munosabatning ham nechog'lik muhim ekanini ta'kidlaydi. “Öğrân anıñ biligin” — ya'ni “uning ilmiga intil” degan jumla ustoz-shogird munosabatining asosi sanaladi. Bu yerda ilm shunchaki axborot yig'ish emas, balki hayotiy tajriba, bilimli shaxslar bilan bevosita muloqot orqali egallanadigan muqaddas ne'mat sifatida tasvirlanadi.



Keyingi misra — “Künta añar baru” (“har kuni unga bor”) — esa ta’lim jarayonining uzluksiz, muntazam bo’lishi lozimligini ko’rsatadi. Mahmud Koshg’ariy bu orqali ilm yo’lida sabr, intizom va davomiylikka urg’u beradi. Bugungi ta’lim tizimida bu fikr “hayot davomida o’qish”, “umrboqiy ta’lim” tamoyillari bilan uyg’unlashadi. Shu bois bu hikmat o’quvchilarni har kuni o’qishga, bilimdonlardan saboq olishga undashda g’oyat foydali.

Uchinchi misra — “qutqilqin tanjigil” (“uni izzatla, hurmat qil”) — orqali esa Koshg’ariy ustozga bo’lgan hurmatni, shaxsiy madaniyat va axloqiy yuksaklik mezonini ko’rsatadi. Bu borada xalqimizda “Ustozning bir kunlik haqqi bo’lsa, ota-onaning 40 yillik haqqidan ustundir” degan maqol ham mavjud. Aynan ustozni e’zozlash, ilm egasini qadrlash orqali bilimning barakasi keladi.

Baytning oxirgi misrasi — “qozg’il küwâz ñaru” — “uning ilmini sinchiklab o’rgan” degani. Bu yerda chuqur ilmiy izlanish, faollik, tanqidiy tahlilga asoslangan o’rganish, bilishga intilish nazarda tutilgan. Bilimning mohiyatini faqat eshitish yoki o’qish bilan emas, balki tushunish, tahlil qilish, savollar berish, qiyoslash orqali egallash ta’kidlanadi.

Mahmud Koshg’ariyning bu hikmati hozirgi yosh avlodni ilm-fan sohasida izchil, chuqur va ehtiromli yondashuv asosida tarbiyalashda beqiyos vosita bo’lib xizmat qilishi mumkin. Shu bayt orqali o’qituvchilar o’quvchilarga nafaqat bilim olish, balki bilim egasiga bo’lgan odob, madaniyat, sadoqat va izchillik tamoyillarini singdirishlari mumkin. Bu fikrlar ayni paytda O’zbekiston ta’lim strategiyasi, “Yangi O’zbekiston” g’oyalari hamohang tarzda mos tushadi.

Jazimni ök äpmän, Bilikni jügäpmän

Köñülni tügärmän, erdam üzä tü rlanur. (*Devonu lug’ot it turk*, II jild, 283-bet)

Tarjimasi: Egamni (Xudoni) maqtayman, uning yordami bilan ilmni to’playman, ko’nglimni shunga bag’ishlaganman, ilmu hunar to’plashga ko’nglim intiladi.

Mazkur baytda Mahmud Koshg’ariy e’tiqod, ma’naviyat va ilm o’rtasidagi bog’liqlikni nihoyatda chuqur va hikmatli tarzda bayon qilgan. Aslida bu to’rt satrli bayt o’zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ilmiy-diniy-ma’naviy



qadriyatlarining yuksak ifodasidir. U ilm olishga bo'lgan ichki ishtiyoq, ruhiy e'tiqod va Allohga tavakkal qilish g'oyalarini bir butun qilib ko'rsatadi.

“Jazimni ök äpmän” — “Egamni maqtayman” jumlası Mahmud Koshg'ariy shaxsining chuqur dindor, e'tiqodli va ma'rifatparvar inson bo'lganini anglatadi. U barcha ishining ibtidosida, eng avvalo, Yaratganga shukronalik bildiradi. Bu fikr bugungi tarbiya jarayonida ham muhim asoslardan biri bo'lib, o'quvchilarda shukr, tavoze', hayotga minnatdorchilik tuyg'usini shakllantirishda muhim vositadir. Shu sabab, tarbiya jarayonida bolaning ongiga “ilm, mehnat va e'tiqod” birligining g'oyasi yoshligidan singdirilishi lozim.

Keyingi misra — **“Bilikni jügäpmän”** — ya'ni “Ilmni yig'ayapman” — bu Mahmud Koshg'ariyning shaxsiy pozitsiyasi, ilmga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Bu yerda “jügäp” fe'li oddiy yig'ish emas, balki “intizom bilan jamlash”, “bilimni tanlab va izlab o'zlashtirish” ma'nolarini beradi. Har qanday bilim egallash — mehnat, fidoyilik va doimiy izlanish talab qiladigan murakkab jarayon. Koshg'ariy bu so'zlar orqali nafaqat o'zining, balki har bir yosh avlodning hayotiy maqsadi bilim olish bo'lishi kerakligini bildiradi.

Uchinchi satr — **“Köñülni tügärmän”** — “Ko'nglimni to'plaganman” degani. Bu so'z orqali muallif bilim olishga, izlanishga faqat tan bilan emas, balki butun qalb bilan berilganini ifoda qiladi. Bu esa bugungi ta'limda psixologik tayyorgarlik, motivatsiya, ijobiy ruhiy muhit kabi tushunchalar bilan bevosita bog'liq. Chunki o'qish, o'rganish faqat majburiyat emas, balki ichki ruhiy ehtiyojga aylangandagina samarali bo'ladi. Shuning uchun ham tarbiya jarayonida o'quvchilarning darsga bo'lgan muhabbatini shakllantirish — asosiy vazifalardan biridir.

So'nggi satr — **“erdam üzä tü rlanur”** — “ilmu hunarga yo'naldim” degani. Bu yerda “erdam” — yordam, himmat, ko'mak, “rulanur” esa “yo'naldim, intildim” degan ma'noda ishlatilmoqda. Bu jumla orqali Koshg'ariy o'zini ilmga yo'naltirganini Allohning yordami bilan bog'laydi. Bu esa Allohdan madad so'rab, ilm yo'lida qat'iyat bilan harakat qilishni tarbiyaviy qadriyat sifatida e'tirof etadi.



Shunday qilib, ushbu bayt to‘rt asosiy pedagogik tushunchani — ****shukr** (e’tiqod), izlanish (ilm), ruhiy tayyorgarlik (ko‘ngil), va istiqbol (maqsadga yo‘nalish)**ni o‘zida jamlagan. Bugungi o‘zbek maktablarida bu g‘oyalar xalqchil, milliy va ma’naviy ruhda tarbiyalashda ayni dolzarb ahamiyatga ega.

Jöп баспыкї тағ, Бузун баспыкї бӱг. (*Devonu lug‘ot it turk*, I jild, 432-bet)

Tarjimasi: Yerning og‘irligi tog‘ bilan, xalqning og‘irligi beklar bilan.

Mazmuni: Yer tog‘ bilan mustahkam tursa, xalq ham donishmand va adolatli rahbarlar — beklar tufayli barqaror yashaydi.

Mahmud Koshg‘ariy mazkur bayt orqali jamiyat tuzilmasining eng muhim ikki asosiy unsurini – **tabiiy muvozanat** va **ijtimoiy muvozanat**ni bir obrazda taqqoslab beradi. U tabiatdagi og‘irlikni – “tog‘” orqali, xalq orasidagi barqarorlikni esa – “bek”, ya’ni dono rahbar, boshqaruvchi orqali ifodalaydi. Bu yondashuv o‘ta teran siyosiy va pedagogik mazmunga ega bo‘lib, hozirgi kunda ham dolzarbdir.

Baytdagi “**Jöп баспыкї тағ**” — “Yerning og‘irligi tog‘ bilan” degan ifoda orqali Koshg‘ariy birinchi navbatda **barqarorlik, mustahkamlik, tayanch** tushunchalarini ochib beradi. Tabiatda yer yuzasining harakatsizligi, muvozanati va himoyasi aynan tog‘lar bilan ta’minlangan. Tog‘siz yer — beqaror, xavfli va noshukur bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday, jamiyatda ham, agar rahbarlik qiladigan “bek” bo‘lmasa, xalqning ijtimoiy barqarorligi buziladi.

Baytning ikkinchi qismi “**Buzun basruqı bӱg**” — ya’ni “xalqning og‘irligi bek bilan” degan so‘zlar esa **boshqaruv va axloqiy liderlik** masalasini ko‘taradi. Koshg‘ariy bu yerda faqat siyosiy boshqaruvni emas, balki **tarbiyaviy yetakchilik**ni ham nazarda tutadi. Chunki qadimiy turk jamiyatida “bek” so‘zi oddiy rahbar emas, balki aql, dono maslahat, qat’iylilik, adolat timsoli bo‘lgan shaxsni bildirgan. Bu timsol orqali Koshg‘ariy jamiyatda **etika, odob, tartib**, eng asosiysi esa **mas’uliyatli rahbarlik** zarurligini ta’kidlaydi.

Shu jihatdan, bu bayt bugungi kun maktab tizimi uchun ham muhim tarbiyaviy xulosalarni beradi. Har bir sinfda, har bir jamoda muvozanatni ta’minlaydigan lider, o‘rnak bo‘ladigan shaxs bo‘lishi kerak. Bu — ustoz, maktab



rahbari, ota-ona yoki jamiyat yetakchilari bo'lishi mumkin. Bu bayt orqali yosh avlodga quyidagilarni singdirish mumkin:

- **Mas'uliyatli rahbar qanday bo'lishi kerak?**
- **Jamiyatda tartib va barqarorlikka kim sababchi?**
- **Odobli va dono inson boshqalarni qanday yo'lga soladi?**

Koshg'ariy nazarida “bek” – bu nafaqat buyruq beruvchi, balki xalqning dardini tinglovchi, uni tuzatadigan, yo'l ko'rsatadigan, bilimli va halol insondir. Hozirgi yoshlar uchun bu g'oya boshqaruv etikasini, liderlik fazilatlarini, ijtimoiy javobgarlikni chuqur anglashga yordam beradi.

Tarixiy-madaniy kontekstda qaralganda, bu bayt turkiy xalqlarning davlat tuzilmasida **beklar, xoqonlar, elchilar** singari boshqaruvchilarning qadrlanganligini bildiradi. Bu shaxslar oddiy boshqaruvchilar emas, balki ma'naviy ustunlikka ega, adolatli rahbarlar bo'lgan. Shu sababli bugungi ta'limda bu kabi hikmatli satrlar orqali rahbarlik madaniyati, adolat, xizmatga sadoqat, yetakchilik mas'uliyati haqida yoshlarda chuqur tushuncha shakllantirish lozim.

Azīn kīšī nēñī nēñ sanmas. (*Devonu lug'ot it turk*, I jild, 124-bet)

Mahmud Koshg'ariyning “*Azīn kīšī nēñī nēñ sanmas*” – ya'ni “Boshqa kishining moli seniki emas” degan hikmatli so'zi *Devonu lug'ot it turk* asarining birinchi jildida (124-betda) keltirilgan bo'lib, o'ta kuchli axloqiy tarbiyani o'zida mujassam etgan qadimiy iqtibosdir. Bu bayt yosh avlodni halollik, vijdon, mulkka nisbatan mas'uliyat, begamanlik va poklik ruhida tarbiyalash uchun ayni pedagogik darslik sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bu hikmat mohiyatida insonning halol mehnat bilan yashashi, o'ziga tegishli bo'lmagan narsalarga ko'z olaytirmasligi, mol-mulk borasida hushyor va mas'uliyatli bo'lishi haqida teran g'oya yotadi. “Seniki bo'lmagan narsa senga tegishli emas, hatto vaqtincha qo'lingda bo'lsa ham” degan fikr zamirida bugungi kun yoshlari uchun juda muhim hayotiy saboq mavjud.

Asarning axloqiy asoslari:

1. **Vijdoniy poklik:** Koshg'ariy bu bayt orqali o'quvchiga har qanday mol-mulk, buyum, imkoniyat yoki resurs — agar u seniki bo'lmasa, unga egalik



da'vo qilishing insofsizlik ekanini eslatadi. Bu islomiy axloq tamoyillariga ham to'liq mos tushadi.

2. **Begamanlik fazilati:** O'zbek xalq maqollarida "Ko'z to'ymasa, qo'l buzuq bo'ladi" degan ibora mavjud. Koshg'ariy bu g'oyani ming yil ilgari hikmat tarzida bayon qilgan. O'quvchilarda boylikka nisbatan ochko'zlikni jilovlash, begamanlikka o'rgatish — bu baytning asosiy tarbiyaviy xususiyatlaridandir.

3. **Halollik g'oyasi:** O'ziga tegishli bo'lmagan narsani o'zlashtirish – bu faqat jinoyat emas, balki ruhiy buzulish, shaxsiy tanazzul belgisi sifatida talqin qilinadi. Koshg'ariy bu yerda o'zgalarning mulkiga ehtiyotkorlik, ishonch va halollik bilan munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi.

Pedagogik qo'llanilishi:

Bugungi zamonaviy ta'limda bu bayt orqali:

- o'quvchilarda **boshqaning mulkiga hurmat**,
- davlat va jamoat mulkiga **mas'uliyat bilan qarash**,
- **egalik va egalik huquqi** haqida tushuncha,
- **nohaqlik va o'zganing haqqini yemang** g'oyalari tarbiyalanadi.

Bu ayniqsa maktab muhitida bolalarga maktab jihozlari, darsliklar, internet resurslari, texnika vositalariga egalik qilmay, ularni asrab-avaylash, lozim bo'lsa egasiga qaytarish madaniyatini singdiradi. Tarixiy kontekstda qaralganda, Koshg'ariy ushbu g'oyani turkiy jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolatni saqlashda asosiy tamoyil sifatida ilgari surgan. Chunki bir-birining mulkini hurmat qilgan jamiyatda do'stlik, ishonch, birdamlik bo'ladi. Bunday jamiyatda esa ma'naviy tanazzulga o'rin yo'q.

Xulosa:

Demak, "Azin kishi neji neji sanmas" bayti orqali Mahmud Koshg'ariy insonning o'z haqi, o'z mehnati, o'z egasi bo'lmagan narsaga da'vo qilmaslik axloqini targ'ib qiladi. Bu esa maktab o'quvchisidan to yetuk fuqarogacha bo'lgan har bir inson uchun o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydigan hikmatli hayot sabog'idir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmud Koshg'ariy. *Devonu lug'otit turk.* 3 jildda. T.1–3. / S. E. Mutallibov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Xamidov A. *Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.* – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 213 b.
3. Qurbonov Sh. *Mahmud Koshg'ariy merosi va uning tadqiqi.* – Toshkent: Fan, 2001. – 148 b.